



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 312 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Said</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	



DEVIANT XULQLI O'SMIRLARDA KONFLIKTLI XULQ SHAKLLANISHIDA OTA-ONA-FARZAND MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li
Turan International University o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulqning shakllanishiga ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Emotsional qabul qilish va rad etish, ota-ona nazoratining izchilligi, psixologik avtonomiya, oilaviy kommunikatsiya hamda avtoritar, liberal va demokratik tarbiya uslublarining o'smir xulqiga ta'sir mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, tizimlashtirish va ijtimoiy-psixologik model-lashtirish metodlariga tayangan. Ota-ona bilan xavfsiz emotsional aloqa, aniq va izchil chegaralar hamda dialogga asos-langan tarbiya konstruktiv konflikt ko'nikmalarini rivojlantirishi; kamsitish, beqaror talablar, haddan tashqari nazorat va befarqlik esa agressiv qarshilik yoki qochish xulqini mustahkamlashi asoslanadi. Oila, maktab va psixolog hamkorligiga mo'ljallangan ko'p bosqichli profilaktika modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: deviant xulq-atvor, o'smirlik davri, ota-ona-farzand munosabatlari, konfliktli xulq, tarbiya uslubi, emotsional qabul, psixologik avtonomiya, oilaviy kommunikatsiya, profilaktika.

Abstract: This theoretical article examines the socio-psychological role of parent-child relationships in the development of conflict behavior among adolescents displaying deviant tendencies. It analyzes emotional acceptance and rejection, consistency of parental control, psychological autonomy, family communication, and authoritarian, permissive, and democratic parenting styles. A secure emotional bond, clear boundaries, and dialogue are argued to support constructive conflict resolution, whereas humiliation, inconsistent demands, excessive control, and indifference may reinforce aggressive resistance or avoidance. A multilevel prevention model integrating family, school, and psychological services is proposed.

Key words: deviant behavior, adolescence, parent-child relationship, conflict behavior, parenting style, emotional accep-tance, autonomy, family communication.

Аннотация: В статье представлен теоретический анализ социально-психологической роли детско-родитель-ских отношений в формировании конфликтного поведения подростков с девиантными проявлениями. Рассма-триваются эмоциональное принятие и отвержение, последовательность контроля, психологическая автономия, семейная коммуникация, а также авторитарный, либеральный и демократический стили воспитания. обосно-вывается, что безопасная эмоциональная связь, ясные границы и диалог поддерживают конструктивное разре-шение конфликтов, тогда как унижение, непоследовательные требования, чрезмерный контроль и безразличие могут усиливать агрессивное сопротивление или избегание. Предлагается многоуровневая модель профилак-тики, объединяющая семью, школу и психологическую службу.

Ключевые слова: девиантное поведение, подростковый возраст, детско-родительские отношения, конфликтное поведение, стиль воспитания, эмоциональное принятие, автономия, семейная коммуникация.

KIRISH

O'smirlik inson rivojlanishining biologik, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlari bir vaqtda kechadigan murakkab bosqichidir. Bu davrda mustaqillikka intilish, shaxsiy hududni himoya qilish, tengdoshlar orasida mavqe egal-lash va kattalar talablarini qayta baholash kuchayadi. Mazkur tabiiy jarayon oiladagi munosabatlar bilan uyg'un boshqarilsa, o'smir mas'uliyatli avtonomiya va konstruktiv muloqotni o'zlashtiradi. Aksincha, uning fikri muntazam inkor etilsa yoki nazorat butunlay yo'qolsa, konfliktli xulq o'zini tasdiqlashning asosiy vositasiga aylanishi mumkin.



Deviant xulq-atvor jamiyatda qabul qilingan huquqiy, axloqiy, pedagogik yoki ijtimoiy me'yorlardan barqaror chekinuvchi xatti-harakatlarni anglatadi. O'smirlarda u dars qoldirish, tajovuzkorlik, kattalar talabiga keskin qarshilik, tengdoshlarni kamsitish, xavfli xatti-harakat, yolg'onchilik yoki huquqbuzarlikka moyillik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu holatlarni faqat o'smirning individual "nuqsoni" sifatida talqin qilish oila, maktab va tengdoshlar tizimining rolini e'tibordan chetda qoldiradi.

Ota-ona-farzand munosabati o'smirning hissiyotlarni anglash, chegaralarni tan olish, norozilikni ifodalash va nizodan keyin munosabatni tiklash usullarini o'rganadigan dastlabki makondir. Ota-onaning o'zaro va farzand bilan konfliktlarni qanday boshqarishi kuzatish orqali o'zlashtiriladigan xulqiy model vazifasini bajaradi. Shu sababli oiladagi kommunikatsiya mazmuni deviant xulqning yagona sababi bo'lmasa-da, uning kuchayishi yoki yumshashida muhim kontekst hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishiga ota-ona-farzand munosabatlarning ta'sir mexanizmlarini tizimlashtirish va oilaga yo'naltirilgan profilaktika modelini ishlab chiqishdir. Tadqiqot obyekti deviant xulq belgilari kuzatilgan o'smirlarning oilaviy muloqoti, predmeti esa emotsional qabul, nazorat, avtonomiya va tarbiya uslublarining konfliktli xulq bilan ijtimoiy-psixologik aloqasidir.

Maqolada quyidagi vazifalar belgilandi:

- ota-ona-farzand munosabatlarini tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlarni qiyoslash;
- tarbiya uslublarining konfliktli xulqqa ta'sir mexanizmlarini ochib berish;
- xavf va himoya omillarini tizimlashtirish;
- maktab, oila va psixolog faoliyatini birlashtiruvchi tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur ish empirik natija taqdim etishdan ko'ra, mavjud ilmiy bilimlarni konseptual sintez qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulqning shakllanishi masalasi psixologiya va pedagogikada keng o'rganilgan.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasida o'smir xulqi kuzatish, taqlid va mustahkamlash orqali shakllanishi ta'kidlanadi.

J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasi esa ota-ona bilan xavfsiz emotsional aloqa o'smirning psixologik barqarorligida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

U. Bronfenbrennerning ekologik yondashuvda oila, maktab va tengdoshlar muhiti o'smir xulqiga o'zaro bog'liq holda ta'sir etuvchi omillar sifatida qaraladi.

D. Baumrind tadqiqotlarida esa demokratik, avtoritar va liberal tarbiya uslublarining o'smirning mustaqilligi, mas'uliyati va konfliktli xulqiga ta'siri yoritilgan.

Mazkur nazariyalar ota-ona-farzand munosabatlaridagi emotsional qabul, izchil nazorat, muloqot va psixologik avtonomiya deviant hamda konfliktli xulqning shakllanishida muhim ijtimoiy-psixologik omillar ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola ilmiy-nazariy va amaliy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqot metodlari sifatida psixologik, pedagogik va oilaviy munosabatlarga oid manbalarni qiyosiy tahlil qilish, tushunchalarni tizimlashtirish, sababiy mexanizmlarni mantiqiy modellashtirish va amaliy tavsiyalarni umumlashtirishdan foydalanildi. Ushbu yondashuv mavjud nazariyalarni bitta tushuntiruvchi tizimda birlashtirish imkonini beradi. Tahlil birligi sifatida ota-ona-farzand munosabatining besh komponenti tanlandi: emotsional qabul, kommunikatsiya sifati, talab va oqibatlarning izchilligi, psixologik avtonomiya hamda ota-onaning konfliktlarni boshqarish modeli. Har bir komponent deviant xulqning xavf yoki himoya omili sifatida baholandi. Nazariy mulohazalar korrelyatsiyani avtomatik ravishda sababiy ta'sir deb qabul qilmaslik tamoyiliga asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolaning ilmiy farazi shundan iboratki, konfliktli xulq faqat nazoratning kuchi bilan emas, ota-onaning iliqqligi va nazoratning izchilligi o'rtasidagi muvozanat bilan bog'liq. Yuqori talab emotsional qabul va tushuntirish bilan birlashsa, mas'uliyatni rivojlantiradi; tahqirlash va beqaror jazoga qo'shilsa, tajovuz yoki qochishni kuchaytiradi. Past nazorat ilqlik bilan birga bo'lsa ham, chegaralarning noaniqligi sababli o'zini boshqarish rivojiga to'sqinlik qilishi mumkin (1-jadval).



1-jadval: Nazariy tahlilning asosiy kategoriyalari

Kategoriya	Tahlil mazmuni
Emotsional qabul	Hisni tan olish, shaxsni xulqdan ajratish
Nazorat izchilligi	Qoida va oqibatning bashorat qiluvchanligi
Psixologik avtonomiya	Yoshga mos tanlov va javobgarlik
Kommunikatsiya	Tinglash, aniq xabar, haqoratsiz muzokara
Konflikt modeli	Ota-onaning nizoni boshqarish namunasi

Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, o'smir xulqni bevosita tajriba bilan birga kuzatish, taqlid va mustahkamlash orqali o'zlashtiradi ^[1]. Oilada kelishmovchilik baqiriq, tahdid, haqorat yoki uzoq sukut bilan "hal qilinsa", aynan shu usullar konflikt repertuariga kiradi. Tinch muhokama, tanaffus, qarshi fikrni tinglash va kelishuv esa konstruktiv model vazifasini bajaradi.

Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog'lanish nazariyasi xavfsiz emotsional aloqani bolaning ichki barqarorligi bilan bog'laydi ^[2]. Ota-ona o'smirning hissiyotlarini tan olsa, ammo zararli xatti-harakatga aniq chegara qo'ysa, u hissiyot va xulq o'rtasidagi farqni o'rganadi. Emotsional rad etish yoki doimiy beqaror munosabat esa oddiy kelishmovchilikni munosabat yo'qolishi xavfi sifatida qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Bronfenbrennning ekologik modeli o'smirni oila, maktab, tengdoshlar va jamiyat tizimlari kesishgan nuqtada ko'radi ^[3]. Agar maktabning talab hamda qo'llab-quvvatlash modeli bir-biriga zid bo'lsa, o'smir ikki tizim orasida moslashish qiyinchiligiga duch keladi. Narrativ oilaviy korreksiya maktabdagi munosabatlarni hisobga olmasdan to'liq bo'la olmaydi.

Baumrind tarbiya uslublarini ota-onaning talabchanligi va javobchanligi nisbatida izohlaydi ^[4]. Demokratik-avtoritativ yondashuv yuqori talabni ilqlik va muloqot bilan birlashtiradi. Avtoritar uslubda talab yuqori, biroq izoh va hissiy qabul past bo'ladi. Liberal uslubda ilqlik bo'lishi mumkin, ammo chegaralar yetarli emas. Befarq uslubda esa ham talab, ham emotsional ishtirok past. Oilaviy tizimlar yondashuvi xulqni alohida shaxsning belgisi emas, munosabatlar tizimida takrorlanadigan sikl sifatida ko'radi. Masalan, ota-ona nazoratni kuchaytiradi, o'smir qarshilik ko'rsatadi, ota-ona yanada qattiqlashadi, o'smir tajovuz yoki qochishga o'tadi. Muammoni faqat o'smirlga yuklash ushbu siklni ko'rinmas qoldiradi; o'zgarish har ikki tomon reaksiyasini qayta tashkil qilishni talab etadi.

O'zbek oilasi sharoitida kattaga hurmat, avlodlararo yaqinlik va jamoaviy mas'uliyat kuchli himoya resursi bo'lishi mumkin. Biroq hurmat tushunchasi o'smir fikrini butunlay inkor etish bilan tenglashtirilganda, norozilik yashirin shaklga o'tadi. Madaniy jihatdan mos profilaktika ota-ona mavqeini saqlagan holda o'smirning sha'ni, fikri va rivojlanayotgan avtonomiyasini tan olishi lozim (2-jadval).

2-jadval: Tarbiya uslublarining qiyosiy tavsifi

Tarbiya uslubi	Talab	Emotsional javob	Ehtimoliy xavf yoki resurs
Demokratik-avtoritativ	Yuqori, izchil	Yuqori	Mas'uliyat va konstruktiv dialog uchun resurs
Avtoritar	Yuqori, qattiq	Past	Yashirin qarshilik, agressiya yoki bo'ysunuvchanlik
Liberal	Past	Ko'pincha yuqori	Chegara va frustratsiyaga chidamlilikning sustligi
Befarq	Past	Past	Nazorat yetishmasligi va emotsional begonlashuv

Emotsional qabul o'smirning barcha xatti-harakatini ma'qullash emas. U shaxsni xulqdan ajratish, "sen yomonsan" o'rniga "bu xatti-harakat xavfli" deyish, hisni tan olish va oqibatni izchil qo'llashni anglatadi. Qabul qilingan o'smir xatosini yashirishga kamroq ehtiyoj sezadi va muammoni muhokama qilishga ko'proq tayyor bo'ladi.

Emotsional rad etish ochiq haqorat, doimiy taqqoslash, masxara, sovuqlik yoki farzand muvaffaqiyatini muntazam qadrsizlantirishda namoyon bo'ladi. Bunday tajriba o'zini past baholash, dushmanona atributsiya va himoyaviy tajovuzni kuchaytirishi mumkin. O'smir neytral talabni ham kamsitish sifatida qabul qilib, nizo boshlanishidan oldin qarshilikka tayyor turadi.

Nazoratning izchilligi qoida, sabab va oqibatning oldindan tushunarli bo'lishidir. Bir xatti-harakat bir kuni e'tiborsiz qoldirilib, boshqa kuni jazolansa, bola me'yorni emas, ota-onaning kayfiyatini kuzatishga o'rganadi. Bu yolg'on, yashirish, jazodan qochish va "chegarani sinash"ni kuchaytirishi mumkin.



Psixologik avtonomiya o'smirning yoshiga mos tanlov, fikr va javobgarlik huquqidir. Avtonomiya nazoratsizlik emas: ota-ona xavfsizlik chegaralarini saqlaydi, biroq kiyim, vaqtni rejalash yoki o'qish usuli kabi masalalarda muhokama va tanlov maydonini kengaytiradi. Haddan tashqari psixologik nazorat aybdorlik, uyat yoki sevgidan mahrum qilish orqali bo'ysundirishga tayanadi va yashirin qarshilikni kuchaytirishi mumkin.

Oilaviy kommunikatsiyada xabar mazmuni bilan ohang birdek muhim. Buyruq, umumlashtiruvchi ayblovlar va eski xatolarni qayta sanash konfliktini shaxsiy kurashga aylantiradi. Qisqa "men-xabari", kuzatiladigan xatti-harakatni aniq aytish, bitta masalani muhokama qilish va qarshi tomon fikrini qayta ifodalash esa nizo doirasini toraytiradi.

Ota-onaning o'zini boshqarishi o'smirlarga qo'yiladigan har qanday talabdan avval keladi. Katta odam yuqori hissiy qo'zg'alishda jazo belgilasa, keyin undan qaytishi yoki haddan oshishi mumkin. Tanaffus olish, suhbat vaqtini kelishish va keyin izchil qaror chiqarish ota-ona hokimiyatini susaytirmaydi; aksincha, uning adolatligi va bashorat qilinuvchanligini oshiradi.

Konfliktli xulq ko'pincha "vaziyat-talqin-hissiyot-reaksiya-oqibat" zanjirida shakllanadi. Ota-onaning oddiy eslatmasi o'smir tomonidan "menga ishonishmaydi" deb talqin qilinsa, g'azab paydo bo'ladi va keskin javob beriladi. Ota-ona buni hurmatsizlik deb qabul qilib, jazoni kuchaytiradi. Takrorlangan sikl har ikki tomonning salbiy kutishini mustahkamlaydi.

Agressiv qarshilik o'smirlarga qisqa muddatda nazorat va kuch hissini berishi mumkin. Agar ota-ona faqat kuchli portlashdan keyin yon bersa, agressiya bilvosita mustahkamlanadi. Xuddi shuningdek, o'smir sukut yoki uydan chiqib ketish orqali talabni bekor qila olsa, qochish strategiyasi mustahkamlanadi. Profilaktika oqibatlarini keskinlashtirish emas, destruktiv strategiyaning "foydasi"ni yo'qotish va konstruktiv alternativani mukofotlashni talab qiladi.

Tengdoshlar guruhi oiladagi tajribani kuchaytirishi yoki kompensatsiya qilishi mumkin. Oilada qadrsizlangan o'smir guruhda mavqe olish uchun tajovuz va qoidabuzarlikka murojaat qilishi mumkin. Ijobiy murabbiy, sport jamoasi yoki qo'llab-quvvatlovchi tengdoshlar esa oilaviy xavfning ta'sirini yumshatadigan muqobil identifikatsiya manbai bo'ladi.

Konflikt strategiyalarini faqat "yaxshi" va "yomon"ga ajratish ilmiy jihatdan noto'g'ri. Xavfli vaziyatdan vaqtincha chekinish yoki prinsipial masalada qat'iy pozitsiya tutish mos bo'lishi mumkin. Muammo strategiyaning vaziyatga moslashuvchan tanlanmasligi, bitta usulning doimiy takrorlanishi va munosabatga zarar yetkazuvchi oqibatlaridir.

Deviant xulqning kuchayishida individual temperament, diqqat va impuls nazorati, travmatik tajriba, moddiy zo'riqish, tengdoshlar bosimi va maktabdagi muvaffaqiyatsizlik ham rol o'ynaydi. Shu bois oilaviy munosabatlar muhim bo'lsa-da, ota-onani yagona aybdor sifatida ko'rsatish mumkin emas. Kompleks baholash himoya resurslarini ham aniqlashi kerak (3-jadval).

3-jadval: Oilaviy xavf va himoya omillari

Xavf omili	Himoya omili
Kamsitish va doimiy taqqoslash	Shaxsni xulqdan ajratib baholash
Beqaror talab va jazo	Oldindan ma'lum, mutanosib oqibat
Haddan tashqari psixologik nazorat	Yoshga mos avtonomiya
Konfliktni baqir yoki sukut bilan boshqarish	Tanaffus, tinglash va muzokara
Maktab va oilaning o'zaro ayblovi	Umumiy maqsad va koordinatsiya

Nazariy tahlil konfliktli xulqni ota-ona talabining miqdori emas, talabchanlik va emotsional javobchanlikning o'zaro nisbati yaxshiroq tushuntirishini ko'rsatadi. Faqat qattiqlik intizomni kafolatlamaydi; faqat iliqlik ham o'zini boshqarishni avtomatik shakllantirmaydi. Eng maqbul sharoit aniq chegara, izchil oqibat, hissiy qabul va yoshga mos tanlovning birligidir.

Avtoritar uslub tashqi bo'ysunishni tez ta'minlashi mumkin, ammo o'smirning ichki qaror qabul qilishini rivojlantirmasligi ehtimoli bor. Nazorat kamaygan muhitda u yashirin qoidabuzarlik yoki keskin qarshilikka o'tishi mumkin. Liberal uslubda esa o'smir ota-onaning ilqligini his qilsa ham, frustratsiyaga chidamlilik va mas'uliyat chegaralari yetarlicha shakllanmasligi mumkin.

Demokratik-avtoritativ uslub konfliktning yo'qligini anglatmaydi. Aksincha, kelishmovchilik ochiq muhokama qilinadi, biroq shaxsiyatga tegish, zo'ravonlik va tahdidga yo'l qo'yilmaydi. O'smir fikr bildirish huquqiga ega, ota-ona esa xavfsizlik va asosiy qoidalar bo'yicha yakuniy mas'uliyatni saqlaydi. Shu jarayonda konflikt ijtimoiy ko'nikma mashqiga aylanadi.

Maktab amaliyotida oila bilan aloqa faqat intizom buzilganda boshlansa, hamkorlik jazolovchi tus oladi. Ota-onaga muammo bilan birga bolaning kuchli tomonlari va kuzatilgan kichik ijobiy o'zgarishlar ham yetka-



zilishi kerak. Muammoni “farzandingiz yomon” shaklida emas, aniq xatti-harakat, sharoit va oqibatlar orqali tasvirlash himoyaviy reaksiyani kamaytiradi.

Psixologning vazifasi ota-onaning o'rniga hukm chiqarish emas, takrorlanayotgan siklni ko'rsatish va yangi reaksiyalarni mashq qildirishdir. Ota-ona hamda o'smir uchun umumiy til - hissiyot nomi, tanaffus signali, bitta muammo qoidasi va kelishilgan oqibat - shakllantirilsa, treningdagi ko'nikma uy sharoitida mustahkamlanadi.

Mahalliy sharoitda kengaytirilgan oila a'zolari, mahalla va ta'lim muassasasi muhim resurs bo'lishi mumkin. Biroq ko'p tomonning aralashuvi o'smirni omma oldida uyaltirishga aylanmasligi kerak. Yordam maxfiylik, sha'nni hurmat qilish va aniq mas'uliyat taqsimoti asosida tashkil etilgandagina samara beradi.

Birinchi bosqich - kompleks baholash. Unda faqat intizom buzilishi emas, konflikt boshlanadigan vaziyatlar, ota-onaning javobi, o'smirning talqini, takrorlanuvchi oqibatlar va oilaning kuchli tomonlari aniqlanadi. Zo'ravonlik, o'ziga zarar yetkazish, modda iste'moli yoki og'ir ruhiy alomatlar bo'lsa, maxsus xizmatga yo'naltirish kechiktirilmaydi.

Ikkinchi bosqich - oilaviy psixoedukatsiya. Ota-onaga o'smirlikdagi avtonomiya ehtiyoji, hissiy qo'zg'alish va konflikt sikli sodda tilda tushuntiriladi. Maqsad aybdor topish emas, takrorlanayotgan aloqani ko'rishdir. Ota-onalar “hisni qabul qilish - zararli xulqqa chegara qo'yish” tamoyilini mashq qiladi.

Uchinchi bosqich - kommunikativ ko'nikmalar. Oila a'zolari bitta masalani muhokama qilish, umumlash-tiruvchi ayblovdan qochish, “men-xabari”, faol tinglash, tanaffus va qayta suhbat vaqtini belgilashni o'rganadi. Mashqlar real oilaviy vaziyatlar asosida takrorlanadi.

To'rtinchi bosqich - qoidalar va oqibatlarni qayta tashkil qilish. Uyda 3–5 ta asosiy qoida yozma va tushunarli shaklda belgilanadi. Oqibatlar xatti-harakatga mutanosib, oldindan ma'lum va haqorat qilmaydigan bo'lishi kerak. Ijoiy o'zgarishlar ham tez va aniq qayd etiladi.

Beshinchi bosqich - maktab bilan koordinatsiya. Pedagog, psixolog va ota-ona bir xil kichik maqsadlarni kuzatadi: masalan, konflikt paytida tanaffus so'rash, darsni tark etmaslik yoki haqoratsiz fikr bildirish. Turli kattalarning qarama-qarshi ko'rsatmalari kamaytiriladi.

Oltinchi bosqich - monitoring va qayta baholash. To'rt-olti hafta davomida konflikt chastotasi, davomiyligi, ishlatilgan strategiya va munosabatning tiklanish vaqti qayd etiladi. Natija bo'lmasa, faraz qayta ko'rib chiqiladi; o'smirning individual ehtiyojlari yoki yashirin xavf omillari chuqurroq baholanadi (4-jadval).

4-jadval: Oilaga yo'naltirilgan profilaktikaning bosqichlari

Bosqich	Asosiy vazifa	Kutiladigan natija
1. Baholash	Konflikt sikli va xavfni aniqlash	Individual ish farazi
2. Psixoedukatsiya	O'smirlik va oilaviy siklni tushuntirish	Ayblovning kamayishi
3. Ko'nikma	Tinglash, men-xabari, tanaffus	Konstruktiv muloqot
4. Qoidalar	Izchil talab va oqibat	Bashorat qilinadigan muhit
5. Koordinatsiya	Maktab–oila maqsadlarini birlashtirish	Bir xil yondashuv
6. Monitoring	O'zgarishni qayta baholash	Rejani moslashtirish

Mazkur maqola nazariy sintezga asoslangan bo'lib, yangi empirik tanlanma yoki statistik natijalarni taqdim etmaydi. Shu sababli taklif etilgan mexanizmlar va profilaktika modeli keyingi tadqiqotlarda tekshirilishi lozim. Nazariy manbalarining katta qismi boshqa madaniy kontekstlarda yaratilgani uchun mahalliy oilalarga tatbiqda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Kelgusida ota-ona va o'smir baholarini birlashtirgan, jins, yosh, hudud va oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olgan tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq. Longitudinal dizayn munosabatlarning vaqt davomida qanday o'zgarishini, aralashuv tadqiqotlari esa oilaviy treningning konfliktli xulqqa ta'sirini baholash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ota-ona-farzand munosabatlari deviant xulqli o'smirning konfliktni talqin qilishi va boshqarish repertuari shakllanadigan markaziy ijtimoiy-psixologik muhitdir. Emotsional qabul, izchil talab, hurmatli kommunikatsiya va yoshga mos avtonomiya o'smirning o'zini boshqarishi hamda konstruktiv kelishuv ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlaydi. Emotsional rad etish, kamsitish, beqaror jazo, haddan tashqari psixologik nazorat yoki befarqlik tajovuzkor qarshilik, qochish va yashirin qoidabuzarlik uchun xavf omili bo'lishi mumkin. Biroq oilaviy muhitni yagona sabab sifatida talqin qilish noto'g'ri; individual, maktab va tengdoshlar omillari ham kompleks baholanishi kerak.



Samarali profilaktika o'smirni "tuzatish" bilan cheklanmaydi. U ota-onaning o'zini boshqarishi, oila ichidagi konflikt siklini o'zgartirish, aniq qoidalar, kommunikativ ko'nikmalar va maktab bilan hamkorlikni yagona tizimga birlashtiradi. Shu yondashuv deviant xulqni jazolashdan ko'ra, uning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o'zgartirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. 247 p.
2. Bowlby J. A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. New York: Basic Books, 1988. 205 p.
3. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. 330 p.
4. Baumrind D. Current patterns of parental authority. Developmental Psychology Monograph. 1971. Vol. 4, No. 1, Part 2. P. 1-103.
5. Maccoby E.E., Martin J.A. Socialization in the context of the family: Parent-child interaction. In: Handbook of Child Psychology. New York: Wiley, 1983. P. 1-101.
6. Minuchin S. Families and Family Therapy. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974. 268 p.
7. Patterson G.R. Coercive Family Process. Eugene, OR: Castalia, 1982. 368 p.
8. Выготский Л.С. Психология развития человека. Москва: Смысл; Эксмо, 2005. 1136 с.
9. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. Санкт-Петербург: Питер, 2008. 400 с.
10. Личко А.Е. Психопатии и акцентуации характера у подростков. Санкт-Петербург: Речь, 2010. 256 с.
11. Реан А.А. Психология подростка. Санкт-Петербург: Прайм-Еврознак, 2008. 512 с.
12. Moffitt T.E. Adolescence-limited and life-course-persistent antisocial behavior: A developmental taxonomy. Psychological Review. 1993. Vol. 100, No. 4. P. 674-701.
13. Thomas K.W., Kilmann R.H. Thomas-Kilmann Conflict Mode Instrument. Mountain View, CA: CPP, 1974.
14. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
15. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
16. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. Toshkent: Sharq, 2008.
17. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer, 1984. 456 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.